

**O‘ZBEKITON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI**  
**ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/08.05.2024.A.11.02 RAQAMLI**  
**ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**YAKUBOVA NAFISA ODILJONOVNA**

**MUHANDISLIK GRAFIKASI DARSLARIDA TALABALARNI**  
**IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH METODIKASINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chizmachilk)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi atoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Yakubova Nafisa Odiljonovna**

Muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish .....3

**Якубова Нафиса Одилжоновна**

Совершенствование методики обучения студентов креативно творческому мышлению на занятиях инженерной графикой .....27

**Yakubova Nafisa Odiljonovna**

Improving methods of teaching students creative thinking in engineering graphics classes .....53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....57

**O‘ZBEKITON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/08.05.2024A.11.02 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**YAKUBOVA NAFISA ODILJONOVNA**

**MUHANDISLIK GRAFIKASI DARSLARIDA TALABALARNI  
IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02-Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chizmachilk)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori(phd) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped2620 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) veb-sahifasining va “ZiyoNyet”elektron ta’lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Saydaliyev Saydkarim Saydnabiyevich,**  
pedagogika fanlari nomzodi, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Maxmudova Dilfuza Meliyevna,**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,  
**Malikov Kozim Gafurovich**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat pedagogika inistituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.03/08.05.2024.A.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “15” iyul, soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi 9-uy, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti majlislar zali. tel.:+998 (55) 508-02-56. e-mail: [devon@taqu.uz](mailto:devon@taqu.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (160 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi 9-uy. tel.: +998 (55) 508-02-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “1” iyul kuni tarqatildi.

(2025 yil “1” iyuldagi №67 raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.A.Asqarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**Sh.S.Reyimbayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
arxitektura fanlari doktori, (DSc) dotsent

**M.S.Usmanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
arxitektura fanlari doktori, (DSc) dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda texnologik ta'lim sohasida PISA-2022 ijodiy fikrlashni baholash orqali talabalarning g'oyalarni yaratish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyatini o'lbaydigan xalqaro dasturdan foydalanilmoqda. Bu metodologiyaning muhandislik grafikasi fanini o'qitishda talabalarda ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish optimal samarali yondashuvlari ishlab chiqish va ulardan ta'lim jarayonida talabalarda ijodiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini o'stirishda samarali qo'llanilishi mumkin. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikalarning yetishmasligi, talabalarning motivatsiyasi va qiziqishini oshirish, o'qituvchilar va talabalarning ko'nikmalaridagi tafovutlar, ta'lim resurslarining yetarli bo'lmasligi, ijodiy fikrlashni o'lchashning qiyinligi kabi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu borada bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri jamiyat ehtiyojlariga mos holda yangicha fikrlovchi, muammolarga noan'anaviy yondasha oladigan, kreativ hamda tanqidiy tafakkurga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, texnik yo'nalishdagi kasblar uchun zarur bo'lgan muhandislik grafikasi fanida talabalarni nafaqat chizma chizish ko'nikmalariga, balki loyihaviy, fazoviy va kreativ fikrlashga yo'naltirgan holda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish sohaning eng dolzarb muommolaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda hozirgi zamon ishlab chiqarish texnologiyalari, raqamli muhitda chizmalarni loyihalash dasturlaridan foydalanish, 3D modellashtirish hamda boshqa zamonaviy vositalarni o'zlashtirishda kreativ yondashuv asosida olib borilayotga tadqiqotlar muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini ilmiy asosda ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb va zarur bo'lgan ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ta'lim tizimining hozirgi bosqichida ta'lim mazmuni va metodikasiga ta'lim mazmunini loyihalash, kasbiy grafik kompetensiyalarni tuzilmalariga ajratish, o'qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim amaliyotida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish bo'yicha "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim mexanizmlarini amalga oshirish, bugungi kunning talab va ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"<sup>1</sup> asosiy vazifa sifatida belgilangan. Bunda bo'lajak muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalarning kasbiy-grafik faoliyatining reproduktiv, produktiv va kreativ darajalarini puxta egallashi uchun barcha didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etishiga alohida ahamiyat qaratilgan. "Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, Oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlaridan nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019-yil 8-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni. - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.

yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish" ustuvor vazifa etib belgilangan<sup>2</sup>. Bu borada kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlashda, talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish va muhandislik grafikasi fanini qiyoslash metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PQ-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganganlik darajasi.** Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarida muhandislik grafikasini o'qitish ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish bo'yicha muayyan ishlar olib borilgan. Xususan, muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishni takomillashtirishning nazariy-metodologik, uslubiy asoslari A.Akbarov, A.R.Umarov, G.M.Tubayev, D.F.Qo'chqorova, I.Rahmonov, I.Islomov, K.A.Zairov, N.I.Xurboev, N.Jumaboyev, P.A.Adilov, R.Ismatullayev, S.Sh.Sharipov, T.D.Azimov, T.Rixsiboev, Sh.K.Murodov, Sh.Abduraxmonov, Z.S.Ochilov, E.I.Ro'ziyev, E.Sobitov, J.Yodgorov, Yu.Q.Qirg'izboyev kabilarning tadqiqotlari muayyan qiziqishlar uyg'otadi.

Muhandislik grafikasi fanlarini fundamental asoslariga A.Akbarov, D.Qo'chqorova, E.Sobitov, I.Rahmonov, R.Ismatullayev, Sh.K.Murodov, J.Yodgorov, Yu.Qirg'izboyev; chizmachilik fanini o'qitish metodikasiga A.Umronxo'jaev, A.B.Todjiboev, P.Odilov, X.Quralova, E.Ro'ziyev, N.Yodgorov kabi olimlar salmoqli hissa qo'shganlar. Jumladan, yarim obyektini to'liq shartli tasvirga almashtirish (L.M.Gosudariskiy), sxematik va simvolik tasvirlarni yaqqol tasvirga almashtirish (A.Umronxo'jayev), sirlarni yoyish jarayonida obyektini almashtirish (V.N.Gerver), tasvirlarni almashtirishda kompyuterdan foydalanish

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019-yil 8-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni. - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.

(J.Yodgorov), chizmachilikda AutoCAD grafik paketidan foydalanish (T.Rixsiboyev) va fazoviy tasavvurni rivojlantirish (Ye.N.Vlasov, V.Yu.Sherbakova, S.Saydaliyev) kabi mavzular tadqiq qilgan. Muhandislik grafikasini o'qitish jarayonida almashtirishlarni qo'llash g'oyasiga A.D.Botvinnikov alohida e'tibor bergan.

Muhandislik grafikasi metodikasini rivojlantirish sohasida o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish, fazoviy obrazlarni xayolan tahlil qilish, ularni bo'laklarga ajratish, detallarning grafik hususiyatlarini ularning ongiga singdirish kabi masalalari M.X.Baybayeva, L.P.Bobrik, V.N.Guznenkov, J.J.Djanabayev, S.V.Joxova, V.V.Knyazkov, A.M.Leybov, L.V.Pavlova, A.B.Puzankova, M.B.Talanova, T.V.Chernyakovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Talabalarni bilim saviyalarini o'stirishda chizma geometriya fanining ularda ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish muammosi borasida xorijlik tadqiqotchi olimlardan Bolotov V.P., Jerriy W.C., Krilov N.N., Kuzina A.B., Loktev O.V., Mixaylov G.M., Raxmatulin T.R., Titov N.A., Pavlenko G.V., Panin V.I., Chagina A.V., Pugachev A.S. va boshqalar muammoning metodologik asoslarini tadqiq etganlar.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da belgilangan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga tegishli "Fan bilan ta'lim jarayoni aloqadorligini rivojlantirish" bandi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni joriy etish jarayonida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muammolarini ilmiy tadqiq etish" Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish hamda metodikasini takomillashtirish orqali ilmiy-metodik xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mavzuga oid pedagogik, psixologik, sotsiologik, tarixiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;

talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishda muhandislik grafikasi fanlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish;

chizmachilik darslarida talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning shakl, vosita va metodlarini ishlab chiqish;

muhandislik grafikasi dars mashg'ulotlarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish yo'l-yo'riq ko'rsatish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Qarshi davlat universitetlari, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Guliston davlat universitetining 328 nafar talabasi respondent sifatida jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning eksperimental

materiallarining nazariy tahlillari asosida ilmiy asoslangan mazmuni, shakllari va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda pedagogik, psixologik ilmiy manbalar, sohaning Davlat ta'lim standarti, o'quv rejalar va dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, psixologik va pedagogik o'lchovlar, ijtimoiy-pedagogik (testlar, anketa so'rovnomalar, kuzatuvlar) va pedagogik tajriba-sinov hamda olingan natijalarni matematik va statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarni ijodiy - kreativ fikrlashga o'rgatishning amaliy metodlari ishlab chiqish va ularni muhandislik grafikasi o'quv jarayoniga integratsiyalash hamda aniq, hayotdagi real muammolarni yechishga qaratilgan vazifalar, loyihalar va grafik topshiriqlar orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish imkoniyatlari takomillashtirilgan;

muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasining samarali tizimi ishlab chiqilganligi bilan talabalarni ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning pedagogik hamda psixologik omillarning integratsiyasiga asoslangan imkoniyatlari optimallashtirilgan;

oliy ta'lim tizimida muhandislik grafikasi fanlarining mazmuni va metodikasini rivojlantirishda talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va interaktiv o'qitish metodlaridan majmuaviy foydalanish, amaliy topshiriqlar, loyihaviy faoliyat va raqamli vositalarini amalda qo'llash asosida jarayonning amaliy-tatbiqiy mexanizmlari takomillashtirilgan;

muhandislik grafikasi fanlaridan talabalarni ijodiy-kreativ fikrlash ko'rsatkichlarini baholash hamda jarayonni nazorat qilish metodikasi nafaqat an'anaviy baholash usullari bilan, balki loyiha va tasavvurga asoslangan interaktiv metodlar orqali nazorat qilish imkoniyatini oshirilgan va talabalarning ijodiy fikrlash salohiyatlarini, murakkab texnik muammolarni ijodiy yondashuvlar asosida yechishning ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodi-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasi takomillashtirishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan;

muhandislik grafikasi fanidan talabalarni ijodi-kreativ fikrlashga o'rgatishga oid ma'lumotlar bilan o'quv dastur va sillabus tarkibiga kiritish hamda grafik ta'lim amaliyotida samarali qo'llanilgan;

talabalarni ijodi-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasi takomillashtirishga oid qo'llanma ishlab chiqilgan;

muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodi-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** pedagogikaning asosiy tamoyillariga asoslanganligi, unda qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, muammo yuzasidan respublikamiz hamda xorijlik olimlarning ilmiy g'oyalari, fikr-mulohazalariga tayanilganligi, pedagogik

tajribasnov ishlarining tahlili hamda uning samaradorligi matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, tadqiqot maqsad va vazifalarining adekvatligi, xulosa, taklif hamda tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning mutasaddi tashkilotlar, vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlari vositasida muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodi-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlar takomillashtirilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan multimediali dastur, baholash tizimi hamda metodikaning takomillashtirilgan variantlari o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Pedagogik tajriba-sinovlar natijalari, bu metodikalar va yondashuvlarning badiiy va texnik ta'lim muassasalarida muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish sifatini oshirishga muhim hissa qo'shishini tasdiqladi. Shuningdek, metodikaning takomillashtirilishi chizmachilik o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni taqdim etdi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodi-kreativ fikrlashga o'rgatish fazoviy tasavvurini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishning amaliy metodlari ishlab chiqish va ularni muhandislik grafikasi o'quv jarayoniga integratsiyalash hamda aniq, hayotdagi real muammolarni yechishga qaratilgan vazifalar, loyihalar va grafik topshiriqlar orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish imkoniyatlari takomillashtirilga oid taklif va tavsiyalar 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi uchun yaratilgan "Chizmachilik" (1-qism) nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Guliston davlat universitet o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil 27-iyundagi 11-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2023-yil 4-iyuldagi №88-sonli buyrug'i bilan berilgan 88-04-raqamli nashr guvohnomasi hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-iyundagi 02-07-2026/04-son dalolatnomasi). Natijada muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodi-kreativ fikrlashga o'rgatish holatini o'rganish hamda mavjud muammolarni aniqlashga sharoit yaratilgan;

muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodiy - kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasining samarali tizimi ishlab chiqilganligi bilan talabalarni ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning pedagogik hamda psixologik omillarning integratsiyasiyasiga asoslangan imkoniyatlari optimallashtirilishiga oid takliflar 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi uchun yaratilgan "Chizma geometriya" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Guliston davlat universitet o'quv-uslubiy kengashining 2024-yil 25-oktabrdagi 3-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2024-yil 31-oktabrdagi №196-sonli buyrug'i bilan berilgan 196-03-raqamli nashr

guvohnomasi hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-iyundagi 02-07-2026/04-son dalolatnomasi). Natijada muassasalarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik talablarini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

oliy ta'lim tizimida muhandislik grafikasi fanlarining mazmuni va metodikasini rivojlantirishda talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va interaktiv o'qitish metodlaridan majmuaviy foydalanish, amaliy topshiriqlar, loyihaviy faoliyat va raqamli vositalarini amalda qo'llash asosida jarayonning amaliy-tatbiqiy mexanizmlarini takomillashtirilishiga oid takliflar 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi uchun yaratilgan "Chizmachilik" (1-qism) nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Guliston davlat universitet o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil 27-iyundagi 11-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2023-yil 4-iyuldagi №88-sonli buyrug'i bilan berilgan 88-04-raqamli nashr guvohnomasi hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-iyundagi 02-07-2026/04-son dalolatnomasi). Natijada oliy pedagogik ta'lim tizimida o'qitiladigan muassasalarida muhandislik grafikasi fanlarining mazmuni va metodikasini takomillashtirishda talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish samaradorligi oshgan;

muhandislik grafikasi fanlaridan talabalarni ijodiy-kreativ fikrlash ko'rsatkichlarini baholash hamda jarayonni nazorat qilish metodikasi nafaqat an'anaviy baholash usullari bilan, balki loyiha va tasavvurga asoslangan interaktiv metodlar orqali nazorat qilish imkoniyatini oshirilgan va talabalarning ijodiy fikrlash salohiyatlarini, murakkab texnik muammolarni ijodiy yondashuvlar asosida yechishning ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirilishiga oid takliflar 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi uchun yaratilgan "Chizma geometriya" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Guliston davlat universitet o'quv-uslubiy kengashining 2024-yil 25-oktabrdagi 3-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2024-yil 31-oktabrdagi 196-sonli buyrug'i bilan berilgan 196-03-raqamli nashr guvohnomasi hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-iyundagi 02-07-2026/04-son dalolatnomasi). Natijada muhandislik grafikasi darslarida ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ko'rsatkichlar dinamikasini ta'minlovchi pedagogik model yaratish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman hamda seminarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomasi olingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 5 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha mahalliy hamda xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning nazariy pedagogik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim mussasalarida chizmachilik fanini o'qitishning metodologik asoslari hamda bugungi kundagi holatining tahlili, talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik nazariya va ta'lim amaliyotidagi ahvolining tahlili, chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik omillari tadqiq etilgan.

Manbalarning tahlillari hamda muammoning amaliyotdagi holatini o'rganish natijalaridan ayon bo'ldiki o'qitish samaradorligiga erishish uchun o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik ta'minotni yaratish mexanizmlariga kreativ yondashuvni tashkil etish talabalarni tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlash va aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishlarini amalga oshirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi. Jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynovchi talaba-bo'lajak mutaxassislar intellektual salohiyatining taraqqiyot jarayoni intellektuallik darajasiga mosligini ta'minlashni taqoza etadi. Bunday muvofiqlikni ta'minlash o'ziga xos ijodiy muammo bo'lib, uning yordamida talabalarga, bo'lajak mutaxassislarga yangicha yondashuvlar asosida ta'lim-tarbiya berishning optimal variantlarini topish amalga oshiriladi. Bunday optimal variantlarni topishga ijodiy yondashuv, kompleks (majmuaviy) yondashuv, tizimiy yondashuv, kreativ yondashuv, innovatsion yondashuv va shu kabi yondashuvlardan foydalaniladi.

Talabalarni bo'lajak mutaxassis sifatida hozirgi davr intellektuallik darajasiga mos qilib shakllantirishda kreativ yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunga sabab kreativ yondashuv jarayonida ta'lim oluvchi an'anaviy ta'limdan (qolipdan) chiqadi, o'z fikrini aytishdan tortinmaydi, mustaqil va erkin fikrlashda bo'ladi, yangi fikr (g'oya)lar yo'naltirilgan bo'ladi. Eng asosiysi, ushbu jarayonlarda ta'lim oluvchilar yaratuvchilik va ijodkorlikka yo'naltirilgan bo'ladi. Talabalarni noodatiy fikrlashga qaratilgan muammo qaraladi, ya'ni unda o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishning algoritmik bosqichlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalasi qaraladi.

Umuman olganda, bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativ shaxs esa, o'zining fikrlashi, dunyoqarashi, doimo yangiliklarga intilishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, muammoga boshqa shaxslarga qaraganda noodatij tarzda yechim topa olishi va original qarashlarni bildirish olishi, qiziqarli suhbatdosh bo'lish va boshqa xususiyatlarni o'zida aks ettirmog'i lozim.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Chizmachilikni o'qitishda talabalarda ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishning muhimligi shundaki, aynan kreativlik asosida talaba oddij chizmalarni tranfozmatsiyasi orqali yangi yechimlar, g'oyalar va loyihalarni ixtiro qilish malakalarini shakllantirib boradi.

Kreativlikni shaxsiy fazilat sifatida ko'pgina olimlar tadqiq etganlar. Jumladan A.Maslou ham kreativlikni-barchaga xos tug'ma ijodiy yo'nalish, atrof muhitning ta'sirida ko'pchilikda yo'qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan. Shuning uchun ham bu sifatni rivojlantirish muhim masala hisoblanadi.

Amerikalik psixolog olim Djo Pol Gilford o'zining tadqiqotida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turiga ajratdi.

Konvergent tafakkur-(lotincha convergere-"bir yo'ldan") tafakkur formasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi [66].


Divergent tafakkur-(lotincha divergere-"bo'linish") ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo'lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur "bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarga izlanish, ya'ni bir muammoga bir nechta to'g'ri javoblar borligini va original ijodiy g'oyalarning tug'ilishiga xizmat qiladi [45].

Divergent tafakkurning negizini esa kreativlik tashkil etadi. Kreativlik tafakkurning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lib, shaxs tafakkuri qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, kreativ fikrlashi ham shunchalik rivojlangan bo'ladi.

Biroq talabalarda kreativlik faqatgina tafakkurning yuqori darajada rivojlanganligi bilan hosil bo'lib qolavermaydi, ya'ni intellektual salohiyati yuqori talaba har doim ham kreativ fikrlay olmasligi mumkin. Buni Djo Gilford tadqiqotlarida ham ko'rishimiz mumkin. Gilford o'z kreativlik strukturasi divergent tafakkurdan tashqari o'zgaruvchanlik qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni birlashtirdi. Shuningek, u kreativlik va intellekt o'rtasida o'zaro uzviy aloqa borligini isbotladi. Biroq, Gilford o'z tajribalarida yuqori intellektuallilarning test yechish davomida ijodkorlik xulqini har doim ham ko'rsatmasligini, kreativ past intellektualli bo'lmasligini aniqladi. Shunday ekan, divergent tafakkur kreativ jarayonning barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi.

Talabalarni ijodiy-kreativ yondashuv asosida o'quv fanlari bo'yicha grafik topshiriqlarni va nazorat-sinov vazifalarini tayyorlash, ijodiy yondashishga undovchi

masalalar to‘plamini, fazoviy tasavvurni rivojlantrishga qaratilgan misollarni shakllantirish muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishning muhim masalalaridan biri sifatida zamonaviy ta’limda talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, tayyor bilimlarni o‘zlashtirish talabalarning ijodiy hamda kreativ fikrlashga o‘rgatish mazmunini, u yoki bu ko‘rinishdagi fanning mohiyatini tushunishlariga yordam beradi. Biroq, fanda fazoviy munosabatlarning mavjud holatini ifodalovchi detal, fazoviy jarayonning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi ikki o‘lchovlik (epyr), tekis chizmani tushunish, hosil bo‘lishlarini tahlil qilish, kreativ fikrlashga, ijodiy yondashishga va eng muhimi, natijasini kafolatlovchi omillarni tahlil qilish malakalarini samarali rivojlanishiga xizmat qiladi. Fanning shu kabi ijobiy holatga erishida talabalarni “muammoli vaziyatlar”ga ro‘para qilish metodik jihatdan samarali sanaladi. Muammoli vaziyatlarning didaktik imkoniyatlari talabalarni o‘rganilayotgan turli xil ko‘rinshidagi grafik topshiriqlar yuzasidan fikrlash (1-rasm), masala mohiyatini yorituvchi tarkibiy elementlar o‘rtasidagi o‘zaro kreativ fikrlashga aloqadorlikni anglash, “muammo-muammoni hal qilish jarayoni-yechim” tizimi asosida masalani tahlil qilish, yechim borasida farazlarni ilgari surish, ularning maqbulligini tekshirish, yechimni bayon etish va uni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni tashkil etishga majbur qiladi. Qolaversa, muammoli vaziyatlar yordamida talabalar o‘z bilimlarini mustaqil tahlil qilish, ijodiy-kreativ fikrlash orqaliy tanqidiy yondashish, o‘rganilayotgan grafik topshiriq (muammo) yuzasidan ijodiy fikrlarni ilgari surish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladiki, xuddi shu holat grafik ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning to‘laonli bajarishni ta’minlaydi.



1-rasm. Talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o‘rgatuvchi topshiriqlarining turlari

Talabalarda kreativ fikrlash malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda, shubhasiz, muhit, pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan talabalarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida ularda kreativ fikrlashga moyillik ortib boradi. Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti talabalarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va ijodiy-kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi va ular quyidagi sifatlarga ega bo'ladilar:

- ✓ boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi;
- ✓ o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi;
- ✓ ba'zan mavzuga aloqasi yo'q yoki g'ayrioddiy savollar beradi;
- ✓ yechimda yaxshi natijaga erishgan vazifalardan zavqlanadi;
- ✓ g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi;
- ✓ muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi.

Dissertatsiyaning **“Chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning didaktik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda tahliliy-tanqiydiiy fikrlashni modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanish mazmunini belgilashning pedagogik talablari, chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning tatbiqiy mexanizimlari, talabalarni chizmachilik fanlaridan topshiriqlarni mustaqil bajarishda ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishning mazmuni va metodikasining tadqiqi yuzasidan olingan natijalar bayon etilgan.

Chizmachilik, chizma geometriya va kompyuter grafikasi fanlarining fazoviy tasavvurga asoslangan texnik imkoniyatlarini bilan o'zida mujassamlashtirgan o'quv fanidir. Shuning uchun ularni o'qitishda asosiy e'tiborni muhandislik va kompyuter texnologiyalarini talabalarda ijodiy-kreativ fikrlashni o'rgatishga yo'naltirish bilan sintez qilishga va ularning bir-birlarini o'zaro boyitishiga qaratish zarur. Bu faoliyatning yangi vositasi-amaliy grafik dasturidan foydalanish asosida tashkil etiladigan bunday fanlararo aloqalar talabalarga bilim sohalari mazmunini yangilash, faollashtirish, ijodiy-kreativ fikrlashni o'rgatishga muhim va eng tahliliy-tanqiydiiy fikrlashni asosiy bilimlarini, tushunchalar doirasini, hodisalar doirasini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Ushbu tushunchalar yuqorilagi fanlarga oid boshqa tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, amaliy masalalarni, ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan grafik topshiriqlarni hal qilishda ulardan qanday foydalanish imkonini belgilaydi, ya'ni ular talabalarning faol ijodiy-kreativ fikrlashni asosiy negizi intellektual faoliyatini ta'minaydi. Hamda tahliliy-tanqiydiiy fikrlashda kreativ fikrlashlari uchun asos bo'lgan bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga imkon beradi. Fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tahliliy-tanqiydiiy fikrlash amaliy va mustaqil xarakter kasb etadi va ana shunga muvofiq ravishda, talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishning individual o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi va amalga oshirilishi kerak. Shunday ekan, talabaga o'quv materialini o'zlashtirish sur'atini tanlash, o'quv jarayonida har bir talabaga individual yondashuvni ta'minlash, ijodiy fikrlashning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'ladi hamda kreativ fikrlash imkonini

beradi. Bundan tashqari, grafik dasturlar yordamida mashg'ulotlarni tashkil etishning ajralmas qismiga quyidagilar kiradi:

- ijodiy-kreativ fikrlashga xalaqit bermaydigan, zamonaviy grafik dasturlar va yangi texnologiyalar bilan ta'minlash;

- talabalarni kreativ fikrlashni o'rgatishga oid axborot manbalari va vositalari bilan ish joyini tashkil etish;

- talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashni o'rgatishga mos topshiriq olish va tahliliy-tanqiydiiy fikrlash bilan uzviylikda tashkil etiladigan faoliyat usuli.

Talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashni o'rgatishning qulay ichki shart-sharoitlar:

- tahliliy-tanqiydiiy fikrlash, faoliyat maqsadini bilish, amalga oshirilayotgan faoliyat mazmuni, uni bajarish usullari va muvaffaqiyatga erishishning real imkoniyatlariga mos aniq natijani shakllantirish qobiliyati;

- talabalarni kreativ fikrlashni o'rgatishda bajarilayotgan faoliyatning ahamiyatini anglash;

- ijodiy-kreativ fikrlash faoliyati mazmunini tushungan holda uni amalga oshirishga ko'maklashish, muhandislik grafikasi fanlarini o'zlashtirishda talabalarning ijodiy qobilyatini rivojlantirishda tahliliy-tanqiydiiy fikrlashni modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanish mazmunini belgilash imkonini beradi.

Ushbu qulay ichki shart-sharoitlar, yangi integrativ o'quv fanlarini, masalan, muhandislik grafikasi fanlaridan foydalanish asosida ta'lim muassasalarida kompozitsiya yoki badiiy dizayn asoslarini amaliyotda keng ko'lamda qo'llash mumkin. Bunday o'quv jarayonlari bir-biriga zid emas, balki asosiy ta'lim dasturining mazmunini sezilarli darajada to'ldiradi va integrasiyalaydi. Bu jarayonlarda fan modellarining turli jihatlari uyg'un tarzda birlashtiriladi hamda tushunchalar tizimi va pragmatik vazifalar tizimi uyg'unlashadi. Jumladan, o'quv jarayonining haqiqiy yakuniy maqsadi bo'lgan to'liq predmetli modellarning metamorfazosi talabalarni tahliliy-tanqiydiiy fikrlashning predmetiga aylanadi va ijodiy-kreativ fikrlashga yo'naltiradi.

Talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishni metodikasi masalasini ko'rib chiqish uchun bevosita rivojlantirish vositasi-muhandislik grafikasi fanlari bilan bog'liq nazariy masalani ham qarab o'tish zarur.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy adabiyotlarda talabalarni ijodiy-kreativ fikrlash bo'yicha izlanishlar olib borilgan tadqiqotlari va o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga tayanib, muhandislik grafikasi fanlari o'qituvchisining ijodiy-kreativ fikrlash qobilyatlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

tahliliy va tanqiydiiy fikrlash-tizimli fazoviy fikrlashi, grafik topshiriqlarni fazoviy tahlil etishi, masalalarni yechishga nisbatan tanqiydiiy fikrlashi, qat'iyatligi, ijodiy fikrlashga yo'naltirishi;

ijodiy va kreativ fikrlash-fazoviy fikrlash, chizmakashlik, loyihalash, konstruktorlik, kommunikativlik, tashkilotchilik, tashxislash, qadriyatlarga bog'lay olish, o'z faoliyatini tahlil etish (refleksiya), ijodkorlik, motivatsiyalar bera olish, ijodiy-kreativ fikrlash qobilyati shakllanganligi hamda xulosa va takliflar ishlab chiqa olishi.

Dissertatsiyaning mazkur bobida amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida asosiy e'tibor o'qituvchilar talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishdagi tahliliy-tanqiydiiy fikrlashning o'zaro uzviy bog'liq ekaniga e'tibor qaratdik. Ijodiy-kreativ fikrlash kontekstida fazoviy tasavvur va fazoviy mantiqiy fikrlashlar ishtirok etadi va aksincha, pedagog hayotining umumiy kontekstida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashni o'rgatishda ishtirok etadi. O'qituvchining talabalarni tahliliy-tanqiydiiy fikrlashda turli konseptual yondashuvlar o'rganilib, muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda motivatsion, kognitiv, faoliyat, akmeologik, tizimli va kompleks yondashuvlar asosida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish samarali rivojlantirishning metodik tizimi modeli ishlab chiqish imkoniyati aniqlandi hamda ishlab chiqildi (2.1.1-rasm).


Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish jarayonida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning metodik tizimi motivasion, maqsad, mazmun, jarayon, natijaviy-baholash komponentlaridan iborat.

Muhandislik grafikasi fanlari bo'yicha topshiriqlarni bajarishda tahliliy-tanqiydiiy fikrlash jarayoni metodik tizimi modelining motivasion komponenti (qo'llab-quvvatlanishi) talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini rivojlantirish uchun ijobiy motivasiyani shakllantirishni, rivojlanishga va o'z-o'zini rivojlantirishga ehtiyojni, ijodiy fikrlashga ega sifatlarning kreativ fikrlashga o'rgatishdagi ahamiyatini anglashni nazarda tutadi.

O'quv jarayonida talabalarni chizmachilik fanlaridan topshiriqlarni mustaqil bajarishda ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish orqali samaradorligini ta'minlovchi omil hamon avvalgidek pedagogning vazifasi bo'lib qolmoqda. Chizmachilik o'quv mashg'ulotlarining ilmiy-metodik ta'minoti uning zimmasida bo'lib, undan talabalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish kreativ didaktik masalalarning yechimini topishga o'rgatish talab etiladi. Talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatishning didaktik qoidalari hamda imkoniyatlariga mos ravishda mazmunni tanlash; ta'lim ishtirokchilarining ijodiy fikrlashi va xatti-harakatlarining qiziqishlariga mos qo'llanilayotgan vositalarning ta'siri natijalarini prognozlashtirish; an'anaviy va kompyuterli o'qitish, grafik dasturlarini integrativ qo'llash usullarini tanlash, chizmachilik fanini o'qitishga tegishli didaktik ta'minotni ta'minlash, faoliyat natijalarini tahlil qilish, chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning didaktik asoslarini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotimizning muammosi chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish va takomillashtirilgan metodikani ta'lim sohasiga tatbiq etish orqali chizmachilikni o'qitish samaradorligiga erishish ishlab chiqarilgan didaktik asoslar bilan ta'minlandi.

Dissertatsiyaning **“Chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tashkiliy-pedagogik jihatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarining tashkiliy va pedagogik mexanizmlari, tajriba-sinov ishlari natijalarining ilmiy-nazariy tahliliga qaratilgan bo'lib o'tkazilgan tahlil natijalari shundan dalolat, berdiki tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda ish olib borish va buning uchun yangi bilimlarni uzliksiz o'zlashtirish lozimligi asoslandi.



2.1.1-rasm. Muhandislik grafikasi darslarida talabalarni ijodiy – kreativ fikirlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning metodik tizimi modeli

Tajriba-sinovning ikkinchi bosqichida o‘qitish hamda tashkiliy qismida ko‘rilgan tayyorgarlik asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Bunda ko‘proq empirik natijalarni belgilashda quyidagi shart-sharoitlarga asoslanildi:

➤ chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o‘rgatish, rivojlantirishga to‘siq bo‘lgan omillarni aniqlash va tadqiq qilish hamda ularni yuzaga keltirayotgan sabablarni aniqlash;

➤ muhandislik grafikasi fanlaridan talabalarni ijodiy-fikrlashga o‘rgatishda yuzaga keladigan kamchiliklarning sabablarini tahlil qilish;

➤ pedagogik ta‘sir bilan, ya‘ni talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o‘rgatish, kamol toptirish va tarbiyalashda erishiladigan natijalar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash;

➤ didaktik choralar bilan kutilayotgan natijalarga erishish uchun o‘qituvchilar va talabalar harakatlari va vaqt taqsimoti orasidagi aloqadorlikni aniqlash;

➤ bir necha pedagogik ta‘sir yoki sharoitlar, variantlar samaradorligini taqqoslash va ular orasidan biror-bir baholash mezonlari asosida (samaradorlik, vaqt, kuch, vositalar, sarflari va h.k) optimallashtirish;

➤ ishlab chiqilgan choralar tizimining tegishli sharoitlarida, ma‘lum mezonlar bo‘yicha ratsional ekanligini isbotlash, orasidagi aloqadorligini ochish;

➤ ma‘lum sharoitlarda reja asosida tashkil etiladigan vaziyatlarni ishlab chiqish hamda faktlarni aniqlash, ular asosida pedagogik ta‘sirlar bilan ularning ob‘ektiv natijalari orasidagi bog‘lanishni aniqlash, bulardan tashqari birgalikda chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o‘rgatish darajasini aniqlashda muhandislik grafikasi fanlari vositasida izchillik prinsiplaridan iloji boricha to‘liq foydalanishga harakat qilinib, ular quyidagi darajalarda (**A**-past daraja, **B**-o‘rtacha daraja, **V**- juda yuqori daraja (3.1-jadval)) belgilandi.

### 3.1-jadval

#### Chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy-kreativ fikrlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish darajalari

Darajalar	Talabalarining o‘quv faoliyati
<b>Past</b>	Talabalar yangi o‘quv materialini ta‘lim beruvchi qayta-qayta takrorlash asosida o‘rganib, undagi muhim tushunchalarning nomuhimidan farqini ajrata olmasliklari va bu bilimni ularning ijodiy fikrlay olmasliklarini, buni esa alohida tushuntirishlardan keyingina o‘qituvchi yordamida bajarilishi hisobga olindi.
<b>O‘rta</b>	Talabalar berilayotgan o‘quv materialini uncha chuqurlashmagan, shunchaki yuzaki holda tushunishi, muhim tushunchalarni to‘g‘ri anglamaslik, ularni ijodiy fikrlashga bog‘lay olmaslik va qiyinchilik bilan ham tatbiq qilishsa ham ularni orasidagi aloqadorlikni, boshqa fanlarda ham ijodiy hamda tanqidiy fikrlash muhim ekanligini tushunishi va undan o‘qtuvchini kichik bir yo‘llanmasi asosida amalga oshira biladilar.
<b>Yuqori</b>	Talabalar yangi o‘quv materialini yengil tushunishlari bilan birgalikda o‘qtuvchi bilan ham savol-javob uyushtiradilar, chizmachilik fanidan topshiriqlarni bajarishda ijodiy fikrlashga undaydigan omillarni yuzaga ketirib va ulardan amaliyotda, ayniqsa fanni o‘zlashtirishda, kreativ fikrlashga bog‘lab chizmalarni bajarishda, standartlar asosini o‘rganish jarayonida erkin ishlata biladilar.

Tajriba-sinov ishlarining natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning o'quv jarayonida ijodiy-kreativ fikrlash va unda ishtirok etish faoliyatini ham quydagi ketma-ketlikda aniqlash imkoniyatiga erishildi:

✓ talabalarning chizmachilik darslarida, asosan, topshiriqlarni bajarish yoki chizma chizish va o'qish, tuzish bilan ko'p hollarda cheklanadi. U kitob bilan va boshqa o'quv vositalardan xabari bo'lmaydi;

✓ talabalarning ijodiy-kreativ fikrlashi mustaqillik xarakteriga ega bo'lib, ular o'z ustilarda mustaqil ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi bilan birga ayrim chizmalar, topshiriqlar, misollar, masalalar va vositalardan o'qituvchining yordamisiz ham ishlash qobiliyatiga ega bo'ldilar;

✓ talabalarni chizmachilik darslarida ijodiy fikrlashi reproduktiv xarakterga ega bo'lib, ular o'zgargan sharoitda ham ma'lum qiyinchiliklar bilan ishlay oladilar va chizmachilikdan misol va masalalarni, grafik ishlarni bajarishda mustaqil foydalanishlari mumkin;

✓ talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish ijodiy xarakterga ega bo'lib, ular bu darajada har bir ishga ijodiy yondashadilar, ijodiy va tanqidiy fikrlaydilar, chizmachilik bo'yicha vazifalarni bajarishda belgilangan standartlarni tatbiq etish ko'rsatkichi o'sadi va undan unumli foydalana biladilar.

Yuqorida keltirilgan ketma-ketlikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun, bevosita logik operatsiyalarni (analiz, sintez, taqqoslash, sistemalashtirish, analogiya, komponentlarga ajratish, abstraksiyalash) ham to'g'ri bajarilishi lozim. Shuning uchun talabalarning bu sohadagi faoliyatlarini asosan uch darajaga ajratib oldik.

Tajriba-sinovning ilk bosqichida tajriba va nazorat guruhidagi talabalarning fanga oid bilim, ko'nikmalari deyarli bir xil darajada shakllanganligini 3.2-jadvalda ko'rish mumkin.

### 3.2-jadval

#### Tajriba-sinovga qadar o'tkazilgan nazorat natijalari

OTM nomlari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
			Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
			(% hisobida)	(% hisobida)	(% hisobida)	(% hisobida)	(% hisobida)	(% hisobida)
GulDU	53	52	8	20	25	9	19	24
			15,09%	37,74%	47,17%	17,31%	36,54%	46,15%
ChirDPU	55	58	8	22	25	8	23	27
			14,55%	40,00%	45,45%	13,79%	39,66%	46,55%
QarshiDU	57	53	8	21	28	9	18	26
			14,04%	36,84%	49,12%	16,98%	33,96%	49,06%
Jami talabalar soni	165	163	24	63	78	26	60	77
			14,55%	38,18%	47,27%	15,95%	36,81%	47,24%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, tajriba-sinov o'tkazilguniga qadar tajriba va nazorat guruhining uchta darajalari bo'yicha olingan natijalarida farq deyarli sezilmaydi. Buni grafik ko'rinishini qo'yidagi diagrammada ham ko'rishimiz mumkin:

Tajriba-sinovga qadar olingan natijalarga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari talabalarining chizmachilik darslarida ijodiy-kreativ fikrlashini rivojlanganligi yetarli darajada yuqori emas, bu esa chizmachilik darslariga oid mavzularni soatlarini ko'paytirishga bo'lgan ehtiyojni tasdiqlaydi. Bundan kelib chiqsak, chizmachilikga oid bilimlarni o'zlashtirish orqali talabalarning ijodiy-kreativ fikrlashini yanada o'stirish imkoniyati mavjud va bu imkoniyatlar ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga ayrim emperik natijalarni taqqoslash va baholash uchun talabalarning chizmachilik fanlaridan olgan bilimlar hajmini

$$Y = \frac{N2}{N1} 100\%$$

(**N2**- test, yoki nazorat ishda to'g'ri berilgan javobi, **N1**- tesda berilgan umumiy savollar va masalalar soni) formula bilan, u fazoviy fikrlashni qat'iyligini aniqlaydi.

$$K = \frac{N4}{N3} 100\%$$

(**N4**- berilgan aniq to'g'ri javoblar soni, **N3**- berilgan umumiy savollar soni) formula bilan xarakterizatsiya qilinadi.

